

## **ILGARI SURISH VOSITALARINING ISTIQBOLLARI**

*Achilov Oybek Rustamovich*

*Chet tillar kafedrası v.b.dotsenti, Toshkent davlat transport universiteti.*

[achilovoybek88@gmail.com](mailto:achilovoybek88@gmail.com)

[\(https://orcid.org/0000-0002-9071-8678\)](https://orcid.org/0000-0002-9071-8678)

**Annotatsiya.** Kognitiv semantikada, lisoniy vositalar orqali shakl va uning ortidagi zamin ya'ni keng mazmun ifodalanishini aniqlanish isbotlangach, freym semantikasi orqali ilgari surish vositalarining o'ziga xos xususiyatlari, kelib chiqishi va vazifalari tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** kognitiv semantika, strukturaviy-semantik, stilistik konvergentsiya, kontseptual tassavur, bilim tuzilmasi

Strukturaviy-semantik yondashuv doirasida asosiy e'tibor stilistik konvergentsiyaga kiruvchi lingvistik vositalar va komponentlarning joylashish tabiatiga qaratiladi, konvergentsiyaning funktsional-pragmatik va kognitiv jihatlari odatda ko'zdan chetda qolmoqda. "Kognitiv tilshunoslik sohasidagi mavjud tadqiqotlar kognitiv asosda lug'at, grammatika, metaforalarga taalluqlidir, ammo matn va uslubning kognitiv jihatlari kam rivojlangan" [1,3]. Kommunikativ tilshunoslikning sohalari sifatida tartibga solish, matn assotsiatsiyasi va matning semantik rivojlanishi nazariyalarini ko'rib chiqish, matn va uslubni o'rganishda kognitiv va kommunikativ yondashuvlarning kesishishiga juda yaqin ma'noni anglatadi. Shunday qilib, matn assotsiatsiyalari nazariyasi muallif strategiyasini tushunishni ta'minlaydi, matnning semantik rivojlanish nazariyasi matnning leksik tarkibida ifodalangan tushunchalarning assotsiativ va semantik sohasiga e'tibor beradi. Ilgari surish vositalarining kognitiv-semantik ma'no mohiyatini rivojlanish turlaridan biri stilistik konvergentsiya bo'lib, matnning tartibga soluvchi tuzilmalari bilan bog'liq[2]. Stilistik konvergentsiya gapning kognitiv xususiyatlari doirasida ishlaydi, shuning uchun

u matn muallifining ma'nolarni ilgari surish bo'yicha kognitiv niyatini amalga oshirishda ishtirok etadi. Uning strukturasi murakkabligi konvergentsiyaning mikrokontekstida sodir bo'ladigan jarayonlarning yuqori intensivligidan dalolat beradi va buning natijasida emotsional mazmun boyitiladi va ta'sir funksiyasi kuchayadi. Agar biz matnning kontseptual tuzilishini badiiy tushunchalarning paydo bo'lishi va o'zaro ta'siri natijasi sifatida tasavvur qilsak, unda stilistik konvergentsiyaning roli tezaurusni safarbar qilish va assotsiativ semantik maydonlarni rag'batlantirish orqali bilim tuzilmalarini aktuallashtirishdan iborat bo'lib, ular pirovard natijada o'zaro ta'sirga ega va matn muallifi dunyosining kontseptual tassavurini taqdim etishga olib keladi. Stilistik konvergentsiyalar qatoriga ellips, litotalar, antiteza, ritorik savollar va undovlar ham kiradi. "Fikrni ifodalashda bilvosita vositalarning ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik ishonch bilan aytish mumkinki, bu fikr uning asosiy mazmunini tashkil etuvchi his-tuyg'ular va hissiyotlar ta'sirida yuzaga keladi; affektiv bilvosita vositalar - bu hissiy intensivlikni o'lchash mumkin bo'lgan go'yoki termometrning bir turi" [4,7]. Stilistik konvergentsiyaning tarkibiy qismlari avtonom bo'lishni to'xtatadi va bitta ma'noni, yaxlit tasvirni uzatishda ishtirok etadi, bu esa, o'z navbatida, g'oyani taqdim etishning iqtisodiy usulidir. Stilistik konvergentsiyaning axborot salohiyatini shakllantirishda qiyoslash, epitet va metaforaning alohida rolini qayd etish zarur. Stilistik konvergentsiya tarkibida ishora alohida o'rin tutadi, uning ekspressiv potentsiali boshqa stilistik vositalarni o'z ichiga olganida ortadi. Materialni tahlil qilish natijasida stilistik konvergentsiya tarkibidagi eng ko'p uchraydigan stilistik vositalar metafora, epitet va taqqoslash bo'lib, ularning xususiyatlari stilistik konvergentsiyaning axborot salohiyatini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tilshunos olimlarning ilgari surish vositalarining istiqbollarda asosiy mezonlari tadqiqot ishida, kognitiv semantik xususiyatlar ta'kidlanishi kerak bo'lgan asosiy masaladir. Shubhasiz, ilgari surish vositasi muhim ma'lumotni ilgari surishning kognitiv usuli sifatida qaraladi va u matn talqin qilishda "kalit" vazifasini bajaradi va bundan tashqari, D.U.Ashurova nuqtai nazaridan "matn ma'lumotlarning ma'lum qismlariga yoki tafsilotlariga e'tiborni

jalb qilish orqali ma'lumotlarni qidirishni osonlashtirishi aytilgan". Bu fikrni N.M.Djusupov ham qo'llab-quvvatlaydi va matnning ilg'orligi uni keyingi tushunish uchun harakatlantiruvchi kuch ekanligini ta'kidlaydi. Tilning o'zaro muvofiqligi muammosi bo'yicha mavjud ishlarni tahlil qilib, shuni aytish mumkinki, stilistik konvergentsiyaning shubhasiz va umumiy qabul qilingan ta'rifi birlashtirilgan stilistik xususiyatlarni amalga oshirishda ishtirok etadigan va katta ekspressiv imkoniyatlarga ega bo'lgan yagona stilistik vositalardan ko'ra, ikki yoki undan ortiq stilistik vositalarning birikmasidir. Stilistik konvergentsiya butun matnda sodir bo'lishi mumkin deb taxmin qilinadi. Shunday qilib, stilistik konvergentsiya deganda bir xil yoki turli darajadagi (fonetik, so'z yasalishi, leksik, sintaktik (shu jumladan stilistik vositalar) yagona stilistik xususiyatlar natijasida) stilistik vositalarning o'zaro ta'siriga asoslangan murakkab stilistik vosita deb mahalliy olimlar nazarida tushunilsa, ingliz olimlari lisoniy og'ishlar deb takidlaydi. Konvergentsiya umumiy stilistik vositalarni (doimiy) stilistik xususiyat va alohida o'ziga xos funksiyalarni bajaradi. Stilistik vositalarning konvergentsiyasi (SVK)ning umumiy stilistik xususiyati ekspressiv funktsiya, ya'ni stilistik vositalarning o'zaro ta'sirini amalga oshiradigan nutqning ushbu uzunligi uchun SVK e'tiborini maqsadli joyga jalb qilish va ushlab turish qobiliyatidir. Dj.N.Lich taqdim etgan ilgari surishning lingvistik deviatsiyalari va parallel strukturalari asosida quyidagi tahlilni tadqiq etamiz. Toni Morrison qalamiga mansub "Song of Solomon" asaridan quyidagi parcha o'ganiladi.

*"Ha! Sound like a newspaper headline: Pilot Dead. She do any flying?"*

*"No. P-i-l-a-t-e, Pilate."*

*"P-i-l-a-t-e. That spell Pie-late," Small Boy said.*

*"Naw, nigger. Not no Pie-late. Pilate like in the Bible, dummy."*

*"He don't read the Bible."*

*"He don't read nothin."*

*"He can't read nothin."*

*They teased Small Boy until Vernell interrupted them. "You all hush. You*

say Sing?" she asked Milkman" [6].

SVK bir yerda to'planishi: o'xshatish -*Sound like a newspaper headline*, alyuziya-*Pilate like in the Bible*, takrorlash va parallel struktura- *He don't read, He don't read, he,he,he*, fonologik devyatsiya- *P-i-l-a-t-e, Pilate*, grammatik devyatsiya- *He don't read nothin, She do any flying?* va leksik devyatsiyalar-*nothin* yig'indisi asosida kuchayib kelayotgan ichki tu'gyon, ya'ni yolg'on ma'lumoting kunday ravshan bo'lmoqda, va bu maqola sarlavhasi kabi yorqin ko'rinib, eshtilmoqda mazmuni o'xshatish vositasida-*Sound like a newspaper headline* yordamida kuchaygan ma'nosi aniqlansa, fonologik devyatsiya- *P-i-l-a-t-e, Pilate* orqali shubhali jarayon sabab, bir ismni qayta qayta har xil hollatda talaffuz etishi misolida gavdalanadi, aslida takrorlash va parallel struktura- *He don't read, He don't read, he,he,he* vositalari zamirida, bu unday emas, asil holatda u o'qishni bilmaydi, shuning uchun qo'rquv aralash qaltirab shunday ismni talaffuz etganini takidlamochi va buning isboti sifatida alyuziya- *Pilate like in the Bible* vositasi orqali isbotlamochi, eng yakuniy aniq fikr grammatik devyatsiya- *He don't read nothin, She do any flying?*, leksik devyatsiyalar-*nothin* orqali yosh bolaning hech qanday aybi yo'qligi, u hech qanday ish qilmaganini isbotlash, yozuvchining asl ochmoqchi bo'lgan semantik tomonlar ilgari surish vositalari yordamida aks etadi. Buning natijasida hissiy ekspressiv funktsiya - his-tuyg'ularni (kayfiyat), hissiy baholash yoki hikoya, xarakterning hissiy holatini kuchaytirish funktsiyasi vazifasini bajaradi. Ushbu stilistik funktsiyaning xarakterli amalga oshirilishi: o'ziga xos his-tuyg'ularni kuchaytirish, hissiy baholash yoki hissiy holatlarni aks etishdan iborat. Natijada, o'quvchida asarni tushunish uchun undagi hissiy kechinmalarni anglash, asar qahramoni tuyg'usini his etish va eng asosiysi undagi o'y-fikr, tushunchalarni baholash yangicha ma'noni, kognitiv semantik xususiyatni shakllanishiga olib keladi[5,8]. Qiyosiy lingvistik materialni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ilgari surish vositalarining asosiy tamoyillaridan biri stilistik vositalarning yaqinlashishi hisoblanadi. Stilistika nuqtai nazaridan, stilistik vositalarning yaqinlashishi matnning eng muhim elementlari va segmentlarini belgilab, hissiy taranglikni keltirib chiqaradi. Kognitiv nuqtai nazardan, konvergentsiya matnda dolzarblik tamoyilini

amalga oshirish orqali birinchi o'ringa qo'yish ya'ni ilgari surish effektini yaratadi va ma'lumotlarning eng muhim kontseptual nuqtai nazarini ta'kidlaydi. Muallifning individual uslubi nuqtai nazaridan, konvergentsiya matnning kompozitsion tashkil etilishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, matnning o'ziga xos qismlarini belgilash orqali muallifning nuqtai nazari kulminatsion nuqtadir va butun asarning mazmunini o'z ichiga oladi. Badiiy matnda kulminatsiya tushunchasi, odatda, hikoyaning eng yuqori rivojlanish chizig'i sifatida qaraladi va harakat rivojlanishining eng qizg'in momentini ifodalaydi, bu adabiy asar muammosini maksimal darajada keskinlashtiradigan va shu yo'l bilan uni keskinlashtiradigan o'ziga xos sinovi bo'lib, qahramonlarning ichki fazilatlarini ochib beradi, bu qahramonlar o'rtasidagi munosabatlar va to'qnashuvlardagi qandaydir burilish lahzasi bo'lib, undan avjiga o'tish boshlanadi. Kulminatsiya murakkab, ko'p qirrali hodisa sifatida qaraladi, syujet harakati rivojlanishidagi ziddiyatning eng yuqori pog'onasi yoki eng yuqori keskinligi sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, quyidagi parcha butun hikoyaning kulminatsion nuqtasi sifatida qaralishi kerak, chunki u qahramonning ichki hissiy stressini eng yuqori voqealarni aks ettiradi, shundan so'ng uning hayotida burilish nuqtasi keladi.

**References:**

1. Croft, William and D. Alan Cruse (2004). *Cognitive Linguistics*. Cambridge: Cambridge University Press. pp. 1, 105, 7–15, 33–39
2. Evans V, Green M. *Cognitive Linguistics. An Introduction*. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006, p161.
3. Rustamovich, A. O. (2023, November). KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA BADIY ASAR SARLAVHALARINING ILGARI SURISH VAZIFALARI. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 2, No. 12, pp. 1-5).
4. Rustamovich, A. O. (2023). The Cognitive-Semantic Approach As A Methodological Basis For The Study Of Foregrounding Tools. *Genius Repository*, 24, 53-56.
5. Rustamovich, A. O. (2023). Cognitive Semantic Properties of Titles in Foregrounding. *Genius Repository*, 24, 32-34.
6. Toni Morrison, *Song of Solomon*, FIRST VINTAGE INTERNATIONAL EDITION, New York.- 2004,250 page
7. Балли, Ш Французская стилистика 2-е изд., стереотипное : Текст /- М: Эдиториал, 2001.-С. 393.
8. Riffaterre M. Stylistic Context.- “Word”, v.15, N15, April, 1959, and “Word”, v.16, N2, August, 1960, pp.207-218, 318-344, 336 ff.